

15

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI  
O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI**



*Ro'yxatga olindi: № BD 60211300-1.29*

**XOR ARANJIROVKASI**

**FANINING O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi:** *200 000 — San'at va gumanitar fanlar*

**Ta'lim sohasi:** *210 000 — San'at*

**Ta'lim yo'nalishi:** *60211300 — Dirijyorlik: akademik xor dirijyorligi*

**TOSHKENT – 2025**

<b>Fan/modul kodi</b> XAJ1204	<b>O‘quv yili</b> 2025-2026	<b>Semestrlar</b> 5-6	<b>ECTS – Kreditlar</b> 4	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta’lim tili</b> O‘zbek/rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 2	
1.	<b>Fanning nomi</b>	<b>Yakka mashg‘ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta’lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>Xor aranjirovkasi</b>	<b>60</b>	<b>60</b>	<b>120</b>
2.	<p><b>I. Fanning mazmuni</b></p> <p>“Xor aranjirovkasi” asosiy fanning maqsadi — turli tarkibdagi xor jamoalari uchun xor va vokal asarlarini moslashtirish malakalarini o‘zlashtirishdir. Ovozlarining ijro imkoniyatlarini, diapazonlarini, registrlarini, tessiturasini; garmonik rivojlanish bilimlarini, polifoniya asoslarini; me’yorga keltirilgan ansamblga olib keluvchi ko‘nikmalarini talaba ongida shakllantirish fanning asosiy maqsadlaridandir.</p> <p>Fanning vazifasi — talabalar turli yo‘nalishlarda bilimlarga ega bo‘lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Xor asarlarini turli yo‘llar bilan moslashtirish, ya’ni aralash xorga mo‘ljallangan ko‘p ovozli partiturani ovoz sonlarini qisqartirgan holda turli tarkibga moslashtirish moslashtirish kabi yo‘llari o‘zlashtirish fanning asosiy vazifasidir.</p> <p><b>II. Asosiy qism (yakka mashg‘ulotlar)</b></p> <p><b>Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi</b></p> <p><b>1 - mavzu: Xor aranjirovkasi fani tushunchasi.</b></p> <p>Xor aranjirovkasi fani haqida umumiy tushunchalar. Xor aranjirovkasi fanining mohiyati, uning hozirgi kundagi o‘rni.</p> <p><b>2-mavzu: Moslashtirish jarayonlari haqida qisqacha ma’lumot.</b></p> <p>Xor turlari (bolalar, erkaklar, ayollar), xor ko‘rinishlari, xor jamoalari (havaskorlik, o‘quv, professional), xor partiyalari (Soprano, Alt, Tenor, Bas) va ularning diapazoni, registri haqida qisqacha tushunchalar.</p> <p><b>3-mavzu: Aralash xor uchun yozilgan asarni bir turli xorlarga va noto‘liq xor uchun moslashtirish.</b></p> <p>Aralash xor uchun yozilgan Markaziy Osiyo va Yevropa kompozitorlarining asarini bir turdagi ayollar va erkaklar xori uchun moslashtirish. Bu jarayonda transpozitsiyalash amalga oshirilishi mumkin. Masalan, aralash xordan ayollar yoki erkaklar xoriga moslashtirishda katta sekunda yoki tersiya yuqoriga tranpozitsiyalash zarur. Bu vaziyatda</p>			

talaba ovozlarning diapazoni va registrini inobatga olishi darkor.

**4 — mavzu: Bir turli xorlar uchun yozilgan asarni boshqa turga, noto'liq xorga va aralash xor uchun moslashtirish.**

Talabaning imkoniyatlarini hisobga olib uning ongiga mos foydali asar tanlash. Ayollar va erkaklar xori uchun yozilgan Markaziy Osiyo va Yevropa kompozitorlarining asarini boshqa xor turiga, noto'liq xorga va aralash xor uchun moslashtirish.

**5-mavzu: Aralash xorga mo'ljallangan ko'p ovozlik asarlarni ovozlarni qisqartirgan holda turli tarkibdagi xorga moslashtirish.**

Aralash xorga mo'ljallangan ko'p ovoqli partituraning ovoz sonlarini qisqartirgan holda turli tarkibga bo'lib moslashtirish. Xor asarlarini kichik tarkibdagi aralash xorning vokal-texnik imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda moslashtirish.

**6- mavzu: Jo'rli xor asarlarini jo'rsiz xor uchun moslashtirish.**

Vokal asarlarni jo'rsiz xorga, imkoniyatlari darajasidan kelib chiqib, jo'rnavoz fakturasini ishlatgan holda xor asarlarini moslashtirish.

**7- mavzu: Estrada asarini xor uchun moslashtirish**

Zamonaviy estrada kuy-qo'shiqlarini aralash, noto'liq yoki bir turdagi xorlar uchun jo'rsiz tarzda moslashtirish, yakkaxon va xor shaklida jo'rli tarzda moslashtirish.

**III. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakl va mazmuni**

Mustaqil ta'limni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- darslik, o'quv qo'llanma, maxsus adabiyotlardagi fanga oid bo'lim va mavzularini o'rganish;
- tarqatma nota asarlari materiallarini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni o'rganish;
- Sibelius nota ilovasi orqali moslashtirish jarayonini o'zlashtirish;
- talabaning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish;

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lim resurslaridan, ta'lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg'armasidan, repetitoriyalardan va konsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning

	<p>tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.</p> <p style="text-align: center;"><b>IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Xor adabiyotni o‘rganish, xorga moslashtirishning umumiy tamoyillari, usullarini o‘zlashtirish</li> <li>2. Xor partituralarining tahlili (janr, ohang tuzilishi, ritm, garmoniya xususiyatlari, har bir qism diapazoni).</li> <li>3. Muayyan ijrochi guruh uchun uning vokal va texnik imkoniyatlarini: ovoz diapazoni, registr, tessitura va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirish jarayoni. Ovozlarining tarkibiga va tovushning tabiatiga qarab turli xil tartibga solish usullaridan foydalanish (o‘rganilayotgan mavzular bo‘yicha xor moslashtirishlarini amaliy amalga oshirish)</li> <li>4. G‘arb, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari mahalliy va milliy madaniyatiga oid xor asarlari, qayta ishlangan va moslashtirilgan audio yozuvlarini tinglash.</li> </ol>
3.	<p style="text-align: center;"><b>V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar)</b></p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Turli xil xor jamoalari uchun musiqiy asarlarni moslashtirish qoidalari, usullarini;</li> <li>• Xor partiyalarining ovoz imkoniyatlarini <b>bilishi kerak</b>;</li> <li>• Asarning tahlili (janr, ohang tuzilishi, ritm, uyg‘unlik xususiyatlari, har bir qismning diapazoni), xor yozuv asoslarini to‘g‘ri aniqlash;</li> <li>• Tanlagan asarni boshqa xor turiga moslashtirish jarayoni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish;</li> <li>• Moslashtirish jarayonida yosh xususiyatlarini ham inobatga olish <b>ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak</b>;</li> <li>• Asarning janr stilistik, faktura xususiyatlariga, ohangdorlikning tabiatiga, metroritmik naqshga, garmonik tilga muvofiq xor aranjirovkasining usullari va turlari;</li> <li>• Xor, vokal va cholg‘u uchun yozilgan musiqiy asarlarning turli xil xor jamoalari uchun mukammal moslashtirishni amalga oshirish <b>malakalariga ega bo‘lishi kerak</b>.</li> </ul>
4.	<p style="text-align: center;"><b>VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• yakka mashg‘ulotlar</li> <li>• interfaol aqliy hujum</li> <li>• xor asarlarning vokal-xor tahlili</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• tarqatma materiallar</li> <li>• elektron materiallar</li> <li>• nota muharrirlik kompyuter dasturlaridan foydalaniladi.</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Moslashtirish jarayonida turli xor jamoalarini ovoz imkoniyatlarini hisobga olib bilishi, ularning diapazonini mukammal bilishi, moslashtirish tamoyillarini shakllantirish. Talaba o'quv dasturni har tomonlama chuqur o'zlashtiradi, ijro jarayonda ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, ijro etib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topiladi.</p> <p>Oraliq va yakuniy nazoratlar fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda dastur asarlarini yozma ishni taqdim etish orqali o'tkazilishi mumkin.</p> <p style="text-align: center;"><b>Oraliq va yakuniy nazorat uchun talablar.</b></p> <p>Talabalar bilimni nazorat qilish o'quv rejaga muvofiq belgilangan. Oraliq nazorat va Yakuniy 5,6 semestrlarda o'tkaziladi.</p> <p style="text-align: center;"><b>5-semestr</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Oraliq nazorat:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Aralash xor uchun yozilgan asarni erkaklar xori uchun moslashtirish 2 ta asar. O'zbekiston va chet-el kompozitorlarining xor uchun mualliflik yoki qayta ishlangan xor asarlari asosida</li> <li>2. Aralash xor uchun yozilgan asarni ayollar xori uchun moslashtirish. 2 ta asar. O'zbekiston va chet-el kompozitorlarining xor uchun mualliflik yoki qayta ishlangan xor asarlari asosida</li> <li>3. Aralash xor uchun yozilgan asarni noto'liq xor uchun moslashtirish. 2 ta asar. O'zbekiston va chet-el kompozitorlarining xor uchun mualliflik yoki qayta ishlangan xor asarlari asosida</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Yakuniy nazorat:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Aralash xor uchun yozilgan asarni bolalar xori uchun moslashtirish. 2 ta asar. O'zbekiston va chet-el kompozitorlarining xor uchun mualliflik yoki qayta ishlangan xor asarlari asosida</li> <li>2. Ayollar xori uchun yozilgan asarni bolalar xori uchun moslashtirish 2 ta asar. O'zbekiston va chet-el kompozitorlarining xor uchun mualliflik yoki qayta ishlangan xor asarlari asosida</li> <li>3. Ayollar xori uchun yozilgan asarni noto'liq xor uchun moslashtirish 2 ta asar. O'zbekiston va i chet-el kompozitorlarining xor uchun mualliflik yoki qayta ishlangan xor asarlari asosida</li> </ol>

**6-semestr**

**Oraliq nazorat:**

1. Ayollar xori uchun yozilgan asarni aralash xor uchun moslashtirish 1 ta asar. O‘zbekiston va chet-el kompozitorlarining xor uchun mualliflik yoki qayta ishlangan xor asarlari asosida

2. Erkaklar xori uchun yozilgan asarni noto‘liq xor uchun moslashtirish. 2 ta asar. O‘zbekiston y va chet-el kompozitorlarining xor uchun mualliflik yoki qayta ishlangan xor asarlari asosida

3. .Erkaklar xori uchun yozilgan asarni aralash xor uchun moslashtirish 2 ta asar. O‘zbekiston va chet-el kompozitorlarining xor uchun mualliflik yoki qayta ishlangan xor asarlari asosida

**Yakuniy nazorat:**

1. Ko‘p ovozli xor uchun yozilgan asardan parchani 4 ovozli xor uchun moslashtirish. 2 ta asar. O‘zbekiston va chet-el kompozitorlarining asarlari asosida.

2. Jo‘rli asarni jo‘rsiz xor uchun moslashtirish. 2 ta asar. Yakkaxon va xor uchun a cappella tarzida

3. Estrada asarini yakkaxon va xor uchun moslashtirish. Jo‘rli yakkaxon va xor uchun. Jo‘rsiz xor uchun murakkab shaklda.

4. Biletida keltirilgan asarni talab bo‘yicha moslashtirish

6.

**Asosiy adabiyotlar**

1. Sharafiyeva N “Xor sinfi” T. 2024(O‘quv qo‘llanma)
2. Sharafiyeva N “O‘zbekiston taronalari”. T.2014 (O‘quv qo‘llanma)
3. Нечаев Е. . Хоровая аранжировка. Т., 2005 (учебное пособие)
4. М.Н.Ивакин Хоровая аранжировка. Владос 2003 (учебное пособие)
5. В.А.Самарин Хороведение и хоровая аранжировка. М.2002 (учебное пособие)

**Qo‘shimcha adabiyotlar**

1. Sh.M.Mirziyoyev. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. PF-60. 28.01. 2022
2. Sh.M.Mirziyoyev. Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PF-4730 26.05. 2020
3. Sh.M.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PQ-4038 28.11. 2018
4. S.Kadirova - Xorshunoslik T. “Musiqqa” 2019 (darslik)
5. П.Г.Чесноков Хор и управление им. М.2015

	<p>6. В.Краснощеков Вопросы хороведения. М. 1998          7. Ройтерштейн М. Практическая полифония. М., 1988.          8. Левандо Хоровая фактура. Л.1984          9. А.Ушкарев Основы хорового письма. М.1988          10. Turli mualliflar. Xor partituralari. 1956-2020.</p> <p><b>Axborot manbalari</b>          1. <a href="http://www.tarakanov.ru">http://www.tarakanov.ru</a>          2. <a href="http://b2c.uz/catalog/youth/uz/musiqa">http://b2c.uz/catalog/youth/uz/musiqa</a>          3. <a href="http://b2c.uz/catalog/youth/uz/musiqa">http://b2c.uz/catalog/youth/uz/musiqa</a>          4. <a href="http://portasound.ru/music-search/musiqa-olami">http://portasound.ru/music-search/musiqa-olami</a>          5. <a href="http://www.musikauz">www.musikauz</a>          6. <a href="http://www.classic-online.ru">http://www.classic-online.ru</a>          7. <a href="http://www.disserr.ru">http://www.disserr.ru</a>          8. <a href="http://imslp.org">http://imslp.org</a>          9. <a href="http://nlib.org.ua/parts/books.html">http://nlib.org.ua/parts/books.html</a></p>
7.	<p><b>Fan dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2025 yil «29» o8 dagi 1 — sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</b></p>
8	<p><b>Fan/modul uchun mas'ullar:</b>          O'.I.Shokarimov — O'zDK, "Akademik xor dirijyorligi" kafedrasida katta o'qituvchisi</p>
9	<p><b>Taqrizchilar:</b>          N.S.Sharafiyeva — O'zDK, "Akademik xor dirijyorligi" kafedrasida professori          S.Muzaffarova — O'zDSMI dotsenti</p>

